

MOLIYA TIZIMINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH HAMDA AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Mannonov Nabiddin¹

O'zbekiston Respublikasi "Islom Karimov" nomli Davlat stipendiyasi
sohibi 4-kurs talabasi

Zokirova Diyora²

2-kurs talabasi

Mavlonov Sunnatbek³

2-kurs talabasi

¹⁻²⁻³Toshkent moliya instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6652044>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

Moliya tizimi, moliyaviy
savodxonlik, moliyaviy
qarorlar, moliyaviy
xizmatlar, xususiy
tadbirkor, jamg'arma,
investitsiyalar.

ABSTRACT

Maqolada O'zbekiston moliya tizimini rivojlantirish va shu bilan bir qatorda aholining moliyaviy savodxonlik tushunchasi, uning afzalliklari va moliyaviy savodxonlikni oshirish masalalarining dolzarbligi va undagi mavjud muammo va kamchiliklar o'rganilgan. Mavzuga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilingan hamda xulosa va takliflar keltirilgan.

Globalashuv jarayonida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi muhim masalalardan biri bu moliya tizimini kompleks rivojlantirish hamda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish hisoblanadi. Moliya tizimini kompleks rivojlantirishni yo'lga qo'yilishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqobatbardoshlikning ortishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda mamlakatning jahon bozorlarida yuqori o'rinlarni egallashiga xizmat qiladi.

Moliya tizimini rivojlantirish haqida so'z borar ekan, moliya tizimi (moliyaviy tizim) tushunchalariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Davlat va korxonalarning pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash hamda

foydalanish borasidagi shakl hamda metodlar to'plamiga moliya tizimi deyiladi. Moliyaviy tizim moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi bozorlar, vositachilar va firmalar hamda uy xo'jaliklari, xususiy kompaniyalar va hukumat tashkilotlari o'zlari tomonidan qabul qilinayotgan moliyaviy qarorlarni ular yordamida amalga oshiradigan boshqa institutlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda moliya tizimini rivojlantirish dolzarb masalalarimizdan biri ekan, ushbu tizimni takomillashtirish oldimizga qo'yilgan bosh vazifalardan biri hisoblanadi. Shuni e'tiborga olgan holda moliya tizimini rivojlantirish, moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish



maqsadida "Milliy strategiya" ishlab chiqildi.

Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan "2021-2023 yillarga mo'ljallangan Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasi"ni tasdiqladi. Milliy strategiyada belgilangan vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi"ga muvofiq bo'lib, uning bosh maqsadi aholining barcha qatlamlari, shu jumladan, yetarli darajada moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olinmagan kam daromadga ega, qishloqlarda istiqomat qilayotgan fuqarolar hamda kichik biznes sub'ektlari uchun sifatli moliyaviy mahsulot va xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan dinamik, innovatsion va inklyuziv moliya tizimini yaratishdan iboorat.

Milliy strategiyada kelgusi yillarda quyidagi islohotlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- banklarning xizmat ko'rsatish nuqtalarini kengaytirish, bank xizmatlarini yetkazishning muqobil yo'llarini joriy etish va bank agentlari tarmog'ini yaratish orqali bazaviy moliyaviy xizmatlar qamrovini oshirish;

- bozorga yangi fintex kompaniyalarning kirib kelishiga qulay shart-sharoitlar yaratish, masofadan identifikatsiya qilish tizimini yo'lga qo'yish, milliy to'lov tizimini

modernizatsiya qilish orqali raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish;

- tadbirkorlar loyihalarini moliyalashtirishga mo'ljallangan turli moliyaviy vositalarni rivojlantirish va nobank kredit tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish orqali kichik tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirishni kengaytirish;

- moliyaviy mahsulot va xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shikoyatlar va nizolarni hal qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish orqali moliyaviy xizmatlar iste'molchilari huquqlarining himoyasini kuchaytirish;

- OAV orqali aholining moliyaviy xizmatlardan xabardorligini oshirish, umumta'lim muassasalarida va noiqtisodiy yo'nalishdagi ta'lim muassasalarida "Moliyaviy savodxonlik" o'quv dasturini joriy etish, shuningdek, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish kabilar hisoblanadi.

Tahlil va natijalar.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, iqtisodiy bilimlarini yuksaltirish masalasi, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, jamiyatning yuksak ma'naviyatini shakllantirish kabi muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy savodxonlik deganda hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan, odamlarning moliya sohasidagi bilimlar to'plami tushuniladi. Fuqarolarning moliyaviy savodxonligi, iqtisodiy bilimlari yuksakligi darajasi nafaqat o'zlarining moddiy farovonligiga ta'sir qiladi, balki mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning ob'yektiv "barometri" hisoblanadi. Iqtisodiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish aholini kelajakka,



davlat uchun esa iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni idrok etadigan fuqarolarning ko'payishini ta'minlaydi. Asosiy moliyaviy bilimlarning yetishmasligi hayot darajasini pasaytiribgina qolmay, balki mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga ham olib keladigan eng jiddiy to'siqlardan biridir. Hozirgi rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida har bitta soha vakillaridan moliyaviy bilim va ko'nikmalar va moliyaviy savodxonlik darajasining yuqoriligi talab qilinadi. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning dolzarbligi quyidagi sabablar bilan belgilanadi:

1. Aholining daromad manbalari tarkibining o'zgarishi. Aholi daromadlari tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar ulushini ortib borishi jamg'arma va investitsiyalarni samarali boshqarish va xarajatlarni to'g'ri rejalashtirishga bo'lgan ehtiyojni keskin ortishiga olib keladi.

2. Ko'p sonli xususiy tadbirkorlarni paydo bo'lishi. Bunday tadbirkorlar kundalik ish faoliyatida turli boshqaruv masalalarini yechadilar: moliyaviy oqimlarni va moddiy aktivlarni boshqarish, moliyaviy hisobga olish, daromad va xarajatlarni rejalashtirish, sug'urta fondlarini shakllantirish, moddiy resurslarni sotib olishni optimallashtirish, bank xizmatidan foydalanish, jamg'armalarni investitsiyalash, kreditlar olish, qarzni boshqarish kabilar shular jumlasidandir.

3. Aholini uzoq muddatli jamg'armalarga va kredit olishga bo'lgan ehtiyojini keskin ortishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg'arishning quyidagi funksiyalarini mustaqil amalga oshirishi lozim: qo'shimcha pensiya jamg'armalarini amalga oshirish, tibbiyot, ta'lim xizmatlariga to'lash uchun jamg'arish.

Yuqoridagi holatlar oila budjetini uzoq muddatli rejalashtirishni, risklarni moliya dastaklar (sug'urtalash, pensiya jamg'armalari, bank depozitlari va qimmatli qog'ozlarni investitsiyalash) orqali baholash va boshqarishni talab etmoqda. Shunday qilib, uzoq muddatli jamg'armalarni shakllantirish va kredit olish ko'nikmalariga o'qitish aholining moliyaviy savodxonligining muhim funksiyasi hisoblanadi.

4. Shaxsiy jamg'armalarni investitsiyalash va moddiy aktivlarini boshqarish imkoniyatlarini kengayishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg'armalari va investitsiyalashini amalga oshirishning turli muqobil usullari vujudga keladi. Banklar va boshqa moliya institutlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlardan unumli foydalanish uchun kreditlarni boshqarish, investitsiyalashni amalga oshirish, to'g'ri samarali qarorlar qabul qilish uchun aholi moliyaviy savodxon bo'lishi lozim.

5. Aholi mehnat migratsiyasi miqyosini kengayishi. Xorijda ishlovchi mehnat migrantlari mehnat faoliyati jarayonida ishdan bo'shatish, aldash, yomon ijtimoiy sharoitlar, yomon muomila kabi xatarlar ta'sirini kamaytirish uchun migrantlarni pul o'tkazmalari, xorij mamlakatlardagi bank xizmati, sug'urta tizimi to'g'risidagi savodxonligini oshirish lozim.

6. Aholining iste'mol madaniyati sohasidagi an'analarini ayrim xususiyatlari. Aholining ba'zi an'anaviy bayramlarga sarflaydigan katta xarajatlarini qisqartirish va inson kapitalini investitsiyalash maqsadiga yo'naltirish uchun sarflanadigan investitsiyalarni ko'paytirish zaruriyati moliyaviy savodxonlikni oshirishni taqozo etadi.



Moliyaviy xizmatlarni iste'molchilari uchun moliyaviy savodxonlikning past darajasi quyidagi salbiy oqibatlariga olib keladi:

- samarasiz qarorlarni qabul qilinishi tufayli moliyaviy institutlarga bo'lgan ishonchni pasayishi;
- moliyaviybozor afzalliklaridan foydalanish imkoniyatining yo'qligi;
- shaxsni qarzdorlik majburiyatlarini yuqori darajadali;
- jismoniy shaxslarning ommaviy bankrot bo'lishi;
- o'sib kelayotgan avlodga salbiy moliyaviy tajribani o'rgatish;
- moliyaviyxizmat sotuvchilarining muttahamlik riskiga moyilligi, hulqining yomonligi;
- hayotiy muhim mahsulotlar uchun jamg'arishning past darajasi;
- pensiya jamg'armalarini shakllanishi va ularni boshqarishning samarasizligi.

Davlat uchun aholi savodxonligining past darajasi, to'lov qobiliyatini rivojlantirishga to'siqning mavjudligi moliya bozorlar imkoniyatini cheklaydi va tartibga solish samaradorligini pasaytiradi, iste'molchilar huquqini cheklaydi, shaxsiy qatnashuvga asoslangan jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tishga yo'l qo'ymaydi. Iqtisodiy nuqtai nazardan moliyaviy xizmatlar borasidagi bilim darajasini yetarli emasligi aholining keng qatlamlarini ularni iste'mol qilishga past darajada jalb etilganligini bildiradi hamda iqtisodiy o'sish salohiyatini belgilovchi jamg'arish, investitsiyalar darajasi va sifatini

cheklaydi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotining rivojlanishi aholini pensiya jamg'arish, sug'urta va ipoteka tizimlarida ishtirok etishini talab qiladi. Chunki aholining ushbu tizimlardagi ishtiroki pensiya jamg'arish, ijtimoiy va tibbiy sug'urta, turar joy bilan ta'minlash va ta'lim sifatini oshirish kabi masalalarni hal qilishga yordam beradi. O'rta sinf uchun xos bo'lgan jamg'arishni kengaytirish va uni samarali ishlatish mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, makroiqtisodiy muvozanatga erishish va moliya tizimining mustahkamlanishiga asos bo'ladi. Aholining jamg'arishga yuqori darajada moyilligi, jamg'arish va sug'urtalash


dastaklaridan keng foydalanishi aholining moliyaviy savodxonligini yuqori darajada bo'lishini nazarda tutadi. Bunday savodxonlik aholiga moliyaviy institutlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, bank va sug'urta sektorlarining xizmatlaridan, pensiyani sug'urtalash tizimidan keng miqyosda va unumli foydalanish imkoniyatini beradi. O'rta sinfga kiruvchi uy xo'jaliklari moliyaviy savodxonligini oshirish orqali shaxsiy budjetlaridan samarali foydalanishadi, uzoq muddatli maqsadlaridan kelib chiqqan holda shaxsiy moliyaviy qarorlarni qabul qilishadi, shaxsiy qarzdorlik darajasini ortib ketishini oldini olishadi, moliyaviy institutlar tomonidan taklif qilinadigan xizmatlar va mahsulotlarni farqlab, ortiqcha xavf- xatarlarni oldi olinadi. Hayotning har bir bosqichida aholining turmush farovonligini ta'minlash ustun darajada shaxsiy moliyaviy qarorlarning samaradorligiga bog'liq bo'lmoqda. Bu esa moliyaviy savodxonlikni mamlakatni uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanishida muhim o'rin egalashini aks ettiradi. Oxirgi o'n yillikda



moliya bozorida iste'molchilar sektorini kengayishi, moliyaviy mahsulotlar turlari va murakkabligini ortishi, aholi daromadlari va yalpi jamg'arm alarining o'sishi aholining qabul qilgan moliyaviy qarorlarida shaxsiy javobgarlikni ortganligini aks ettiradi. Ushbu holat ham aholi moliyaviy savodxonligini oshirish muammosining dolzarbligini ko'rsatadi. O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasini baholash mikro ma'lumotlarining yetishmasligiga juda ko'p qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. 2014 yilgi Global moliyaviy savodxonlik tadqiqotlari natijalariga qaraydigan bo'lsak O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasi o'tish davridagi boshqa davlatlarga qaraganda ancha past edi. 2017 yilning may oyida Markaziy bank Xalqaro moliya korporatsiyasi, O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi va O'zbekiston Savdo-sotiq palatasi bilan hamkorlikda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha yangi dasturni amalga oshirishga kirishilganini ma'lum qilgan edi. Ushbu dastur 2 qismdan

iborat bo'lib 1-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik egalariga mo'ljallangan bo'lsa, ikkinchisi keng aholi qatlamlarining manfaatlari uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Mikromoliya tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi Mikromoliya markazi bilan hamkorlikda 633 nafar kam ta'minlangan fuqarolarni bevosita o'qitish va moliyaviy savodxonlik bo'yicha 34 nafar treyner tayyorlash orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturini amalga oshirdi.

Nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyo bo'ylab moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha turli xil dasturlar va so'rovnomalar o'tkazilib kelmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) 2021 yilgi hisobotlarida ko'rsatilishicha moliyaviy savodxonlik darajasi O'zbekiston 59,9%, Qozog'iston 59,6% va Belarus 61,% kabi yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan. OECD ma'lumotlariga ko'ra bu, davlatimiz moliyaviy savodxonlikka erishayotganini ifodalaydi.



1-rasm. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasi ko'rsatkichlari.



Bundan tashqari, bilamizki, aholining moliyaviy savodlik darajasi mamlakat iqtisodiyotiga ham katta ta'sir qiladi. Shuningdek, statistic ma'lumotlardan ham ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik reytingida ham ahvoli yomonlashgan.

Ahvolimizning yomonlashishiga Sudning samaradorligi va Mulkchilik huquqi bo'yicha vaziyatning orqaga ketgani eng ko'p ta'sir o'tkazgan. Oxirgi yillarda mustaqil sud yo'qligi va mulk huquqi changga aylantirilganini o'zbekistonliklar o'zining tanasida va hayotida his etishmoqda.

Yana shuningdek, biznes erkinligi, mehnat bozoridagi erkinlik, hukumat yaxlitligi, soliq yuki, davlat xarajatlari va fiskal salomatlik pozitsiyalarida ham ortga qaytish yuz bergan.

Umumiy qilib olganda, huquq ustuvorligi, davlat aralashuvi va tartibga solish samaradorligi masalalarida ahvol og'irlashgan. Bularning hammasi qo'shilib, iqtisodiy erkinlik reytingida 9 pog'onaga, 117- o'ringacha pasayishimiz yuz bergan.

Reytingda TOP-50dan faqat to'rtta sobiq sovet o'lkasi joy olgan. Bular Rossiya ta'siridan rosmiyan ozod bo'la olgan va erkin taraqqiyot yo'lini tutgan, erkin saylovlarda doimiy almashinadigan va fuqarolarga hisobdor hukumatga ega Estoniya (7- o'rin), Litva (17-o'rin), Latviya (18-o'rin) va Gruziya (26- o'rin).

Shuningdek, Moliya vazirligi "Fuqarolar uchun byudjet — 2022" (loyiha) nashrini e'lon qildi. Unda 2022-

yilda yirik soliq to'lovchilarning davlat byudjeti tushumlaridagi ulushi ham ko'rsatilgan va unga ko'ra Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati asosiy soliq to'lovchi bo'lib qolmoqda (27,22%). NKMKning ulushi qisqarib (20,1%dan 17,82%ga), OKMKniki (6,4%dan 9,4%ga) ortgan. Sevimli UzAuto Motors esa, prognozga ko'ra, 0,73% tushumni ta'minlaydi, 2021-yilda bu prognoz 1,5% edi. Moliya vazirligining qayd etishicha, 2022-yilda byudjet daromadlari ko'p jihatdan yirik soliq to'lovchi korxonalar iqtisodiy holatiga bog'liq bo'ladi. Qisqa qilib aytganda, bu- davlat byudjetiga tushayotgan va chiqib ketayotgan har bir daromad va xarajatlar jamlanmasi mamlakatning moliyaviy savodxonlik darajasini belgilab beradi.

Xulosa va takliflar.

Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish Jahon hamjamiyatidagi har bir davlat uchun, shu jumladan zamonaviy O'zbekistonning jadal rivojlanishining zaruriy qismidir. Bunday vaziyatda hukumat tomonidan belgilangan asosiy maqsadlardan biri fuqarolarni shaxsiy mablag'larni samarali boshqarish uchun ma'lumot va ta'lim vositalari bilan ta'minlash va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida teng ravishda ishtirok etishdir. Ushbu muammoni hal qilish kompleks yondashuvni va ushbu jarayonga mintaqaviy tashkilotlarning turli tuzilmalari va tashkilotlaridan mutaxassislarni jalb qilishni talab qiladi. Ommaviy auditoriyaga tezkor, aniq va ravshan shaklda ma'lum muhim ma'lumotlarni yetkazish va butun aholi uchun masofaviy ta'limni amalga



oshirishga qodir bo'lgan asosiy vosita ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Axborot almashinuvi tezligi va ommaviy axborot vositalarining auditoriyaga ta'siri misli ko'rilmagan darajaga yetgan va axborot oqimlari soni kun sayin ortib borayotgan bir paytda, jurnalist murakkab moliya dunyosi va aholi o'rtasida samarali va talab qilinadigan vositachiga aylanadi. Olib borilgan tahlillar natijalari ommaviy axborot vositalari orqali efirga uzatiladigan televizion dasturlar, bosma nashrlarda chop etiladigan va internet nashrlarida e'lon qilinadigan materiallarning kamligi, bu yo'nalishdagi kam sonli dasturlarda beriladigan ma'lumotlarning yetarli emasligi, shuningdek, iqtisodiy jurnalistika sohasida faoliyat olib boruvchi jurnalistlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish barobarida aholining moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlar bilan ishlash kerakligini ko'rsatdi. Moliyaviy savodxonlik yo'nalishi bo'yicha televizion o'quv dasturlari va ommaviy auditoriya uchun kasbiy faoliyat doirasidagi moliyaviy-iqtisodiy

mavzulardagi jurnalistik materiallar yaratish g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, yurtimiz bozor iqtisodiyotiga doimiy moslashuvi va moliya tizimining doimiy murakkablashuvi sharoitida fuqarolarning universal moliyaviy ta'limi davlatning barqaror rivojlanishining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shuningdek fuqarolarning shaxsiy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash kafolati va davlatlararo samaradorlikka ta'sir qiluvchi parametr ekanligi to'g'risida xulosa chiqarishimizga imkon beradi. Mazkur islohotlar aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, bazaviy moliyaviy xizmatlar ommabopligi hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aholining kredit va to'lov tashkilotlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash orqali aholi farovonligi, moliyaviy tizim va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga hamda mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishiga xizmat qiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.04.2021 yildagi PF-6207-son "kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
4. Vaxabov A.V Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma. Toshkent
5. A.V. Vahobov, T.S. Malikov. "Moliya" darslik. Toshkent. 2012.
6. Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy: Questionnaire and Guidance Notes for conducting an Internationally Comparable Survey of Financial literacy, Paris, OECD, 2011, 31 p.
7. Huston S.J. Measuring Financial Literacy. The Journal of Consumer Affairs, 2010, vol. 44, no. 2, pp. 296-31.



8. www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portal);
9. www.lex.uz (O'zbekiston respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi);
10. www.stat.uz (O'zbekiston respublikasi Statistika Qo'mitasi).
11. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy web sayti)
12. <https://www.federalreserve.gov/econres/notes/feds-notes/disparities-in-wealth-by-race-and-ethnicity-in-the-2019-survey-of-consumer-finances-20200928.htm>
13. <https://uz.tgstat.com/channel/@finlituz>